Абдулқуддус амакининг сабоқлари (10-қисм)

05:00 / 16.02.2017 68481

Абдулқуддус амакининг сабоқлари (10-қисм)

НАМОЗ ЎҚИШНИ ЎРГАНИНГ

Ассалому алайкум, менинг суюкли тойчоқларим!

Бугун сизларга намоз ўқишни ўргатиб қўяман, деб ваъда берувдим. Ваъдани, албатта, бажарамиз. Тайёрмисизлар? Таҳорат қилиб келдингларми? Барокаллоҳ! Чунки намозни таҳоратсиз ўқиб бўлмайди. Мусулмон киши бир кунда беш маҳал намоз ўқийди.

Тонг оқарган пайт (субҳ)дан то қуёш бош кўтаргунча ўқиладиган намоз «Бомдод» дейилади. Қуёш тиккага келиб қибла томонга мойил бўлган пайтдан нарсаларнинг сояси ўзига нисбатан икки баравар катталашгунча ўқиладиган намоз «Пешин» дейилади. Пешин вақти тугагандан то кун ботгунча ўқиладиган намоз «Аср» дейилади. Кун ботгандан кун ботиш томондаги шафақ (қизғиш нурлардан кейин пайдо бўладиган оқиш нурлар) йўқолгунча ўқиладиган намоз «Шом» ҳамда шафақ тамоман йўқолиб, қоронғи бўлгач ўқиладиган намоз «Хуфтон» дейилади. Кун чиқаётганда, кун тиккага келганда ва кун ботиш чоғида намоз ўқиш мумкин эмас, аммо аср намози кун ботаётганда ҳам ўқилаверади.

Намозда тик туриш «Қиём» дейилади. Шунда Қуръони каримдан бирор сура ёки учдан ортиқ оят ўқиш «Қироат» дейилади. Икки тиззанинг кўзини ушлаб эгилиш «Рукуъ» дейилади. Кейин чўккалаб икки бора жойнамозга бош теккизиш «Сажда» дейилади. Ана шу ҳаракатларнинг ҳаммаси биргаликда «Ракъат» дейилади. Намоз ана шу ракъатлардан ташкил топади. Бу айтганларимни яхшилаб эслаб қолинглар, ширинтойларим! Ҳали намоз ўқишга киришганимизда керак бўлади.

Аллоҳнинг қатъий амри билан мусулмонлар зиммасига мажбурий қилиб қўйилган намоз ракъатлари «Фарз» дейилади. Пайғамбар алайҳиссалом ўзлари ўқиб, умматларига ҳам тавсия қилган намоз ракъатлари «Суннат» бўлади. Хуфтондан сўнг 3 ракъатли витр намози ўқилиши вожиб ҳисобланади.

Намозларнинг тартиби қуйидагича:

1. Бомдод намози – 2 ракъат суннат, 2 ракъат фарз.

2. Пешин намози – 4 ракъат суннат, 4 ракъат фарз, 2 ракъат суннат.

3. Аср намози – 4 ракъат фарз.

4. Шом намози – 3 ракъат фарз, 2 ракъат суннат.

5. Хуфтон намози – 4 ракъат фарз, 2 ракъат суннат, 3 ракъат витр.

Энди намознинг фарзлари, яъни мажбурий талабларини ўргатиб қўяй. Намоз фарзлари 12 та. Бундан олтитаси намоз ташқарисидаги ишлар. Уларни «Намознинг шартлари» дейилади. Олтитаси эса намознинг ичида бўлиб, уларни «Намознинг рукнлари» дейилади. Агар ана шу 12 нарсадан биронтасини бажармай қўйсангиз, намозингиз бузилади.

Болажонларим, мана булар намознинг шартлари ҳисобланади:

1. Таҳорат олиш (аввалги дарсда ўргатганман).

2. Нажосатдан покланмоқ. Бу – намозхоннинг бадани, уст-боши тоза, пок бўлиши, ўғил-болаларнинг кийимлари киндикдан тиззагача, қиз болаларнинг эса юз, кафт ва оёқ учидан бошқа ҳамма аъзоларини ёпиб туриши керак, дегани.

3. Намоз ўқиладиган жой пок, тоза бўлиши керак.

4. Намозни қиблага (Макка шаҳридаги Каъба турган томонга) қараб ўқиш даркор.

5. Намозни ўз вақтида ўқиш зарур (вақтларини олдинроқ айтиб берганман).

6. Қайси намоз ўқиётганини ния́т қилиш.

Намознинг рукнлари эса мана булар:

1. Намозни «Аллоҳу акбар» деб бошлаш («Такбири таҳрима»).

2. Намозда тик туриш («Қиём»).

3. Қиёмда турганда барча ракъатларда «Фотиҳа» сурасини ва барча суннат намозларида ҳамда фарз намозларининг аввалги икки ракъатида бирорта

бошқа сурани қўшиб ўқиш («Қироат»).

4. Қўлларни тиззага қўйиб эгилиш («Рукуъ»).

5. Бурун, пешона, қўл, тизза ва оёқларни ерга теккизиш («Сажда»).

6. Намоз охирида «Ташаҳҳуд» ўқиб ўтириш («Қаъдаи охир»).

Энди, болажонларим, сизларга намоз ўқишнинг тартибини тушунтириб қўяй. Таҳорат олиб келиб, жойнамоз тепасида қиблага юзланиб, масалан, Бомдод намозини ўқимоқчи бўлсангиз, мана бундай ният қиласиз:

«Бомдод намозининг икки ракъатли суннатини (ёки фарзини) қиблам бўлмиш муқаддас Каъбага юзланиб, ўз вақтида, холис Аллоҳ таоло учун ўқишни ният қилдим».

Сўнгра икки қўлни кўтариб, бош бармоқлар учини иккала қулоқнинг юмшоқ жойига теккизиб: «Аллоҳу акбар», дейилади. Кейин қўлни қовуштирган ҳолда туриб, мана бу «Сано» ўқилади:

«Субҳанакаллоҳумма ва биҳамдик ва табарокасмук ва таъала жаддук ва ла илаҳа ғойрук!»

Кейин: «Аъузу биллаҳи минашшайтонир рожийм, бисмиллаҳир роҳманир роҳийм», деб Фотиҳа сураси ўқилади. Кейин кичикроқ суралардан бири ўқилади:

Суралардан бири ўқилгандан сўнг «Аллоҳу акбар» деб рукуъ қилинади, яъни икки тиззанинг кўзини ушлаган ҳолда бош билан белни бир текис қилиб энгашилади ва уч марта «Субҳана роббиял ъазийм» дейилади.

Сўнг: «Самиъаллоҳу лиман ҳамидаҳ, роббана лакалҳамд» деб тик бўлинади. Кейин яна «Аллоҳу акбар» деб саждага борилади.

Саждада уч марта: «Субҳана роббиялъ аъла» дейилади, кейин яна «Аллоҳу акбар», деб ўтирилади, сўнг «Аллоҳу акбар» деб иккинчи бор сажда қилинади. Саждадан «Аллоҳу акбар» деб тик турилади. Қўл қовуштириб, «Фотиҳа» сураси ўқилади, кетидан суралардан бирини ўқиб, рукуъ ва икки бор сажда қилинади. Кейин чап оёқни ерга ётқизиб, устига чўккалаб ўтирилади, ўнг оёқ бармоқлари учида тикка туради. Қўл бармоқлари эса тизза устида бўлади. Қаъда, яъни ўтиришда Ташаҳҳуд («Аттаҳиёт») ўқилади. Кейин Салавот ўқилади.

Сўнг ўнг ва чап елкага ўгирилиб: «Ассалому алайкум ва раҳматуллоҳ», деб салом берилади. Шу билан намоз тугайди.

Бомдоднинг кейинги икки ракъат фарзи ҳам, барча икки ракъатли суннатлари ҳам шу тарзда ўқилади.

Пешиннинг тўрт ракъатли суннатида, юқорида айтилганидек, икки ракъат ўқиб, қаъдада «Ташаҳҳуд»ни «ва Расулуҳ»гача ўқиб, «Аллоҳу акбар» деб ўрнидан туриб, яна юқоридаги тартибда икки ракъат ўқилади, қаъдада Ташаҳҳуд, Салавот ва дуо ўқиб салом бериб, намоз тугатилади.

Тўрт ракъатли фарзларда ҳам аввалги икки ракъатини ва «Расулуҳ»гача ўқиб, «Аллоҳу акбар» деб ўриндан турасиз ва кейинги икки ракъатда фақат «Фотиҳа» сурасининг ўзини ўқийсиз, қаъдада Ташаҳҳуд, Салавот ва дуо ўқиб салом бериб, намозни тугатасиз.

Азиз дилбандларим, намоз ўқиш ҳақида сизга айтмоқчи бўлган гапларим ҳозирча шу. Намоз ўқишни бошлаб юборганингиздан сўнг билмаган жойларингизни ота-онангиздан, агар улар билишмаса, бошқа устозлардан сўраб оласиз. Иннайкейин, намоз тўғрисида жуда кўп китоблар чиққан. Китоб сотадиган амакиларингиздан сўрасангиз, кўрсатишади. Уларни ҳам ўқиб, билмаган, тушунмаган жойларингизни ўрганасиз. Бўптими, асал-қандларим!

O’NINCHISABOQ

NAMOZ O’QISHNI O’RGANING

Assalomu alaykum, mening suyukli toychoqlarim!

Bugun sizlarga namoz o’qishni o’rgatib qo’yaman, deb va’da beruvdim. Va’dani, albatta, bajaramiz. Tayyormisizlar? Tahorat qilib keldinglarmi? Barokalloh! Chunki namozni tahoratsiz o’qib bo’lmaydi. **Musulmon kishi bir kunda besh mahal namoz o’qiydi.**

Tong oqargan payt (subh)dan to quyosh bosh ko’targuncha o’qiladigan namoz **«Bomdod»** deyiladi. Quyosh tikkaga kelib qibla tomonga moyil bo’lgan paytdan

narsalarning soyasi o’ziga nisbatan ikki baravar kattalashguncha o’qiladigan namoz **«Peshin»** deyiladi. Peshin vaqti tugagandan toki kun botguncha o’qiladigan namoz «Asr» deyiladi. Kun botgandan kun botish tomondagi shafaq (qizg’ish nurlardan keyin paydo bo’ladigan oqish nurlar) yo’qolguncha o’qiladigan namoz **«Shom»** hamda shafaq tamoman yo’qolib, qorong’i bo’lgach o’qiladigan namoz **«Xufton»** deyiladi. Kun chiqayotganda, kun tikkaga kelganda va kun botish chog’ida namoz o’qish mumkin emas, ammo asr namozi kun botayotganda ham o’qilaveradi.

Namozda tik turish **«Qiyom»** deyiladi. Shunda Qur’oni karimdan biror sura yoki uchdan ortiq oyat o’qish **«Qiroat»** deyiladi. Ikki tizzaning ko’zini ushlab egilish **«Rukul»** deyiladi. Keyin cho’kkalab ikki bora joynamozga bosh tekkizish **«Sajda»** deyiladi. Ana shu harakatlarning hammasi birgalikda **«Rakat»** deyiladi. Namoz ana shu rakatlardan tashkil topadi. Bu aytganlarimni yaxshilab eslab qolinglar, shirintoylarim! Hali namoz o’qishga kirishganimizda kerak bo’ladi.

Allohning qat’iy amri bilan musulmonlar zimmasiga majburiy qilib qo’yilgan namoz rakatlari «Farz» deyiladi. Payg’ambar alayhissalom o’zlari o’qib, ummatlariga ham tavsiya qilgan namoz rakatlari «Sunnat» bo’ladi. Xuftondan so’ng 3 rakatii vitr namozi o’qilishi vojib hisoblanadi.

Namozlarning tartibi quyidagicha:

1. Bomdod namozi – 2 rakat sunnat, 2 rakat farz.

2. Peshin namozi – 4 rakat sunnat, 4 rakat farz, 2 rakat sunnat.

3. Asr namozi – 4 rakat farz.

4. Shorn namozi – 3 rakat farz, 2 rakat sunnat.

5. Xufton namozi – 4 rakat farz, 2 rakat sunnat, 3 rakat vitr.

Endi namozning farzlari, ya’ni majburiy talablarini o’rgatib qo’yay. Namoz farzlari 12 ta. Bundan oltitasi namoz tashqarisidagi ishlar. Ularni «Namozning shartlari» deyiladi. Oltitasi esa namozning ichida bo’lib, ularni «Namozning ruknlari» deyiladi. Agar ana shu 12 narsadan birontasini bajarmay qo’ysangiz, namozingiz buziladi.

Bolajonlarim, mana bular **namozning shartlari** hisoblanadi:

1. Tahorat olish (avvalgi darsda o’rgatganman).

2. Najosatdan poklanmoq. Bu — namozxonning badani, ust-boshi toza, pok bo’lishi, o’g’il-bolalarning kiyimlari kindikdan tizzagacha, qiz bolalaming esa yuz, kaft va oyoq uchidan boshqa hamma a’zolarini yopib turishi kerak, degani.

3. Namoz o’qiladigan joy pok, toza bo’lishi kerak.

4. Namozni qiblaga (Makka shahridagi Ka’ba turgan tomonga) qarab o’qish darkor.

5. Namozni o’z vaqtida o’qish zarur (vaqtiarini oldinroq aytib berganman).

6. Qaysi namoz o’qiyotganini niyat qilish.

Namozning rukniari esa mana bular:

1. Namozni «Allohu akbar» deb boshlash («Takbir tahrima»).

2. Namozda tik turish («Qiyom»).

3. Qiyomda turganda barcha rakatlarda «Fotiha» surasini va barcha sunnat namozlarida hamda farz namozlarining avvalgi ikki rakatida birorta boshqa surani qo’shib o’qish («Qiroat»).

4. Qo’llarni tizzaga qo’yib egilish («Ruku’»).

5. Burun, peshona, qo’l, tizza va oyoqlarni yerga tekkizish («Sajda»).

6. Namoz oxirida «Tashahhud» o’qib o’tirish («Qa’dai oxir»).

Endi, bolajonlarim, sizlarga namoz o’qishning tartibini tushuntirib qo’yay. Tahorat olib kelib, joynamoz tepasida qiblaga yuzlanib, masalan, Bomdod namozini o’qimoqchi bo’lsangiz, mana bunday niyat qilasiz:

«Bomdod namozining ikki rakatli sunnatini (yoki farzini) qiblam bo’lmish muqaddas Ka’baga yuzlanib, o’z vaqtida, xolis Alloh taolo uchun o’qishni niyat qildim».

So’ngra ikki qo’lni ko’tarib, bosh barmoqlar uchini ikkala quloqning yumshoq joyiga tekkizib: «Allohu akbar», deyiladi. Keyin qo’lni qovushtirgan holda turib, mana bu «Sano» o’qiladi:

«Subhanakallohumma va bihamdik va tabarokasmuk va ta’ala jadduk va la ilaha g’ayruk!»

Keyin: «A’uzu billahi minashshaytonir rojiym, bismillahir rohmanir rohiym», deb Fotiha surasi o’qiladi. Keyin kichikroq suralardan biri o’qiladi:

Suralardan biri o’qilgandan so’ng «Allohu akbar» deb ruku’ qilinadi, ya’ni ikki tizzaning ko’zini ushlagan holda bosh bilan belni bir tekis qilib engashiladi va uch marta **«Subhana robbiyal ’aziym»** deyiladi.

So’ng; **«Sami’allohu liman hamidah, robbana lakalhamd»** deb tik bo’linadi. Keyin yana «Allohu akbar» deb sajdaga boriladi.

Sajdada uch marta: «Subhana robbiyal’ a’la» deyiladi, keyin yana «Allohu akbar», deb o’tiriladi, so’ng «Allohu akbar» deb ikkinchi bor sajda qilinadi. Sajdadan «Allohu akbar» deb tik turiladi. Qo’l qovushtirib, «Fotiha» surasi o’qiladi, ketidan suralardan birini o’qib, ruku’ va ikki bor sajda qilinadi. Keyin chap oyoqni yerga yotqizib, ustiga cho’kkalab o’tiriladi, o’ng oyoq barmoqlari uchida tikka turadi. Qo’l barmoqlari esa tizza ustida bo’ladi. Qa’da, ya’ni o’tirishda Tashahhud («Attahiyot») o’qiladi. Keyin Salovot o’qiladi.

So’ng o’ng va chap yelkaga o’girilib: **«Assalomu alaykum va rahmatulloh»,** deb salom beriladi. Shu bilan namoz tugaydi.

Bomdodning keyingi ikki rakat farzi ham, barcha ikki rakatli sunnatlari ham shu tarzda o’qiladi.

Peshinning to’rt rakatli sunnatida, yuqorida aytilganidek, ikki rakat o’qib, qa’dada «Tashahhud»ni «va Rasuvluh»gacha o’qib, «Allohu akbar» deb o’rnidan turib, yana yuqoridagi tartibda ikki rakat o’qiladi, qa’dada Tashahhud, Salovot va duo o’qib salom berib, namoz tugatiladi.

To’rt rakatli farzlarda ham avvalgi ikki rakatini va «Rasuvluh» gacha o’qib, «Allohu akbar» deb o’rindan turasiz va keyingi ikki rakatda faqat «Fotiha» surasining o’zini o’qiysiz, qa’dada Tashahhud, Salovot va duo o’qib salom berib namozni tugatasiz.

Aziz dilbandlarim, namoz o’qish haqida sizga aytmoqchi bo’lgan gaplarim hozircha shu. Namoz o’qishni boshlab yuborganingizdan so’ng bilmagan joylaringizni ota-onangizdan, agar ular bilishmasa, boshqa ustozlardan so’rab olasiz. Innaykeyin, namoz to’g’risida juda ko’p kitoblar chiqqan. Kitob sotadigan amakilaringizdan so’rasangiz ko’rsatishadi. Ularni ham o’qib, bilmagan, tushunmagan joylaringizni o’rganasiz. Bo’ptimi, asal-qandlarim!